



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQRISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQRISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gopardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
Raxmanova Ilmira Rustamovna	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
Toxirov Javlon Raximovich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
Arslonov U. U.	
RESURLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
Saitqulov Suxrob Shavkatovich	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Saitkulov Suxrob Shavkatovich

TDIU mustaqil tadqiqotchisi.

s.saitkulov9000@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada milliy soliq siyosatini Jahon savdo tashkiloti (JST) prinsiplari asosida muvofiqlashtirishning konseptual va nazariy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda JSTning milliy rejim, eng qulay sharoit rejimi (MFN), diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va shaffoflik tamoyillarining milliy soliq tizimiga ta'siri baholangan. Xalqaro tajriba asosida tashqi savdo liberallasuvi jarayonida import bojlari ulushining qisqarishi va QQS hamda aksizlar ulushining ortishi tendensiyalari tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston uchun JST qoidalariga mos soliq siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti, soliq siyosati, QQS, milliy rejim, savdo liberallasuvi, bilvosita soliqlar, soliq ma'murchiligi.

Abstract. This article examines the conceptual and theoretical foundations of harmonizing national tax policy based on World Trade Organization (WTO) principles. The study assesses the impact of WTO principles, such as national treatment, most-favored-nation (MFN) treatment, non-discrimination, and transparency, on the national tax system. Drawing on international experience, the article analyzes trends toward reducing the share of import duties and increasing the share of VAT and excise taxes in the context of foreign trade liberalization. The article develops scientific proposals for priority areas for developing Uzbekistan's tax policy in accordance with WTO rules.

Key words: World Trade Organization, tax policy, VAT, national treatment, trade liberalization, indirect taxes, tax administration.

Аннотация. В статье исследованы концептуальные и теоретические основы гармонизации национальной налоговой политики на основе принципов Всемирной торговой организации (ВТО). В исследовании дана оценка влияния таких принципов ВТО, как национальный режим, режим наибольшего благоприятствования (MFN), недопущение дискриминации и прозрачность, на национальную налоговую систему. На основе международного опыта проанализированы тенденции сокращения доли импортных пошлин и увеличения доли НДС и акцизов в условиях либерализации внешней торговли. В статье разработаны научные предложения по приоритетным направлениям формирования налоговой политики Узбекистана в соответствии с правилами ВТО.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, налоговая политика, НДС, национальный режим, либерализация торговли, косвенные налоги, налоговое администрирование.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida tashqi savdo munosabatlarining chuqurlashuvi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining tezlashishi milliy iqtisodiyotlarning soliq siyosatiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Globallasuv sharoitida tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiyalar harakatining erkinlashib



borishi davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosati bilan bir qatorda, soliq tizimlarining ham xalqaro qoidalarga muvofiqlashtirilishini taqozo etmoqda. Xususan, Jahon savdo tashkiloti (JST) qoidalari va prinsiplari tashqi savdo munosabatlarini tartibga solish bilan birga, milliy soliq tizimlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. JSTning milliy rejim, eng qulay sharoit rejimi (Most Favoured Nation — MFN), diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va shaffoflik kabi tamoyillari milliy soliq siyosatini shakllantirishda muhim institutsional asos hisoblanadi.

Shu bilan birga, JST qoidalari moslashish jarayoni milliy iqtisodiyot uchun ma'lum institutsional va fiskal xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, import bojlari stavkalarining pasaytirilishi qisqa muddatda davlat budjeti daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Bu esa davlatdan ichki soliq bazasini kengaytirish, bilvosita soliqlar ma'murchiligini takomillashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Shu sababli JST prinsiplari asosida soliq siyosatini muvofiqlashtirishning konseptual asoslarini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi JST prinsiplarining milliy soliq siyosatiga ta'sirini nazariy va institutsional jihatdan tahlil qilish hamda JST qoidalari mos soliq siyosatini shakllantirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida milliy soliq siyosatini ushbu tashkilotning asosiy prinsiplariga muvofiqlashtirish masalasi xalqaro savdo nazariyasi, soliq siyosati nazariyasi va institutsional iqtisodiyot kesishmasida shakllanadigan murakkab ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur masala, avvalo, JSTning milliy rejim, eng qulay shartlar rejimi, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, shaffoflik va savdo erkinlashuvi kabi prinsiplari orqali tahlil qilinadi.

Xalqaro savdo tizimining nazariy asoslarini o'rgangan Bagwell va Staiger (1999) JSTning huquqiy-iqtisodiy mantig'ini o'zaro manfaatdorlik, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va bozorga kirish shartlarining barqarorligi bilan izohlaydi. Ularning yondashuviga ko'ra, milliy siyosat vositalari, jumladan, soliqlar xalqaro savdo oqimlariga ta'sir ko'rsatgan taqdirda, ular faqat ichki fiskal maqsadlarga emas, balki xalqaro raqobat muhitiga ta'siri nuqtai nazaridan ham baholanishi lozim (Bagwell & Staiger, 1999). Ushbu yondashuv tadqiqot mavzusi uchun muhim nazariy asos bo'lib, soliq siyosatini JST prinsiplariga muvofiqlashtirish zaruratini savdo siyosatining umumiy institutsional mantig'i bilan bog'laydi [1].

JST qoidalari va soliq siyosati o'rtasidagi bog'liqlikni maxsus tadqiq etgan Daly (2005, 2006) soliq choralari xalqaro savdo tizimida faqat ichki fiskal instrument sifatida emas, balki ayrim hollarda savdo cheklovi yoki subsidiya mexanizmi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Uning tahliliga ko'ra, JST doirasida to'g'ridan-to'g'ri soliqlar odatda milliy soliq suvereniteti doirasida qaralsa-da, ular eksportni rag'batlantirish, importni cheklash yoki ayrim ishlab chiqaruvchilarga selektiv ustunlik berish vositasiga aylansa, JST qoidalari bilan ziddiyatga kirishi mumkin (Daly, 2005; Daly, 2006). Bu xulosa milliy soliq siyosatini JST prinsiplari asosida muvofiqlashtirishda nafaqat bilvosita soliqlar, balki foyda solig'i, eksportga bog'langan imtiyozlar va maqsadli soliq yengilliklarini ham institutsional baholash zarurligini ko'rsatadi [2; 3].

Li (2005) xalqaro savdo huquqi va milliy soliq siyosati o'rtasidagi munosabatni mamlakat misolida tahlil qilib, JSTning milliy rejim prinsipi ichki soliqlarda diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslikning asosiy huquqiy mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, import mahsulotlari ichki bozorga kiritilgandan keyin ularga nisbatan mahalliy mahsulotlarga qaraganda og'irroq soliq rejimi qo'llanilsa, bunday amaliyot JST qoidalari zid hisoblanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, soliq siyosatini JST prinsiplariga moslashtirish faqat stavkalarni o'zgartirish emas, balki soliq bazasi, imtiyozlar, qaytarish mexanizmlari va ma'muriy tartiblarni ham neytrallik mezoni asosida qayta baholashni talab etadi (Li, 2005) [4].

Soliq siyosatini savdo liberallashtirish bilan bog'liq holda tahlil qilgan Keen va Lighthart (2002) tariflarni qisqartirish ichki soliq islohotlari bilan birgalikda amalga oshirilsa, fiskal barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni bir vaqtning o'zida ta'minlash mumkinligini asoslaydi. Mualliflar kichik ochiq iqtisodiyot sharoitida import tariflarini kamaytirish va ichki iste'mol soliqlarini mos ravishda takomillashtirish jamiyat farovonligi va davlat daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi (Keen & Lighthart, 2002). Ushbu tadqiqot JSTga a'zo bo'lish jarayonida soliq siyosati oldidagi asosiy muammoni — savdo erkinlashuvi natijasida pasayadigan tarif daromadlarini ichki neytral soliqlar orqali qoplash zaruratini nazariy jihatdan asoslaydi [5].

Ichki iste'mol soliqlarining xalqaro savdo tizimidagi o'rni Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Ebrill, Keen, Bodin va Summers (2001) tomonidan tayyorlangan "Zamonaviy qo'shilgan qiymat solig'i" asarida qo'shilgan qiymat solig'i tashqi savdo liberallashtirish sharoitida nisbatan neytral va samarali fiskal instrument sifatida baholanadi. Mualliflar qo'shilgan qiymat solig'ining manzil prinsipi asosida amal qilishi, ya'ni eksportni nollik stavkada, importni esa ichki iste'mol joyida soliqqa tortish mexanizmi uni xalqaro savdo



qoidalar bilan nisbatan uyg'un soliq shakliga aylantirishini ta'kidlaydi (Ebrill et al., 2001). Bu yondashuv JSTga a'zo bo'lish jarayonida bilvosita soliqlarning neytralligini ta'minlash masalasini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyatga ega [6].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) iste'mol soliqlari bo'yicha tahlillari ham JST prinsiplariga mos soliq siyosati uchun muhim amaliy asos beradi. IHTTning "Iste'mol soliqlari tendensiyalari — 2024" hisobotida qo'shilgan qiymat solig'i va tovar-xizmatlar solig'i zamonaviy soliq tizimlarida asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib borayotgani, IHTT mamlakatlarida standart qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 2024-yilda o'rtacha 19,3 foizni tashkil etgani qayd etilgan (IHTT, 2024). Mazkur hisobot tashqi savdo tariflarining pasayishi sharoitida davlatlar ichki iste'mol soliqlari ma'murchiligini takomillashtirish orqali fiskal barqarorlikni ta'minlashga intilayotganini ko'rsatadi [7].

Xalqaro soliq raqobati nazariyasi ham JSTga a'zo bo'lish jarayonida soliq siyosatini muvofiqlashtirishni tushuntirishda muhim o'rin tutadi. Wilson (1999) soliq raqobati nazariyasida mustaqil davlatlar kapital va investitsiyalar uchun raqobatlashar ekan, soliq stavkalari, imtiyozlar va ma'muriy yengilliklar orqali bir-biriga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [8]. Keyingi tadqiqotlarda Keen va Konrad (2013) soliq raqobati va soliq muvofiqlashuvi o'rtasidagi muvozanat davlatlarning fiskal mustaqilligi va xalqaro majburiyatlari o'rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltirishini ko'rsatadi. Bu nazariy yondashuv JST prinsiplari asosida soliq siyosatini moslashtirishda davlatning ichki fiskal manfaatlar bilan xalqaro savdo majburiyatlari o'rtasida institutsional muvozanat zarurligini asoslaydi [9].

JST prinsiplari nuqtai nazaridan soliq imtiyozlari va subsidiyalar masalasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. JST doirasidagi Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi kelishuv davlatlar tomonidan beriladigan ayrim moliyaviy afzalliklar, jumladan, soliq imtiyozlari eksport natijalari yoki mahalliy mahsulotdan foydalanish sharti bilan bog'langan bo'lsa, ularni xalqaro savdo raqobatini buzuvchi mexanizm sifatida baholashi mumkin. Shu sababli adabiyotlarda soliq imtiyozlarini umumiy investitsion muhitni yaxshilash vositasi sifatida qo'llash va ularni eksportga bog'langan selektiv qo'llab-quvvatlash instrumentiga aylantirmaslik zarurligi ta'kidlanadi (Daly, 2006) [3].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar JST prinsiplari va milliy soliq siyosati o'rtasidagi bog'liqlikni bir nechta yo'nalishda izohlaydi. Birinchidan, JSTning milliy rejim va eng qulay shartlar rejimi prinsiplari soliq siyosatining diskriminatsion xususiyat kasb etishini cheklaydi. Ikkinchidan, savdo liberallashtirish import bo'jarini qisqartirishni talab qilib, ichki iste'mol soliqlari, xususan, qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlarning fiskal ahamiyatini oshiradi. Uchinchidan, soliq imtiyozlari va subsidiyalar JST qoidalariga nuqtai nazaridan qayta baholanishi lozim. To'rtinchidan, soliq ma'murchiligining shaffofligi va huquqiy aniqligi tashqi savdo ishtirokchilari uchun teng raqobat muhitini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini xalqaro savdo nazariyasi, institutsional iqtisodiyot va soliq siyosati nazariyasi tashkil etadi. Tadqiqotda JST prinsiplari asosida soliq siyosatini muvofiqlashtirishga oid nazariy va ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy usuli sifatida qiyosiy-tahliliy yondashuv qo'llanilib, JSTning milliy rejim, eng qulay shartlar rejimi, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va shaffoflik prinsiplarining soliq siyosatiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, institutsional tahlil usuli orqali tashqi savdo bilan bog'liq soliq imtiyozlari, bilvosita soliqlar va soliq ma'murchiligining JST qoidalariga moslashuv darajasi baholandi.

Tadqiqotda deduksiya va induksiya usullari yordamida turli ilmiy yondashuvlar umumlashtirilib, JSTga a'zo bo'lish jarayonida har qanday davlat uchun soliq siyosatini tashkilot prinsiplariga moslashtirishning eng maqbul konseptual yondashuvlari bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari JSTning asosiy prinsiplari milliy soliq siyosatini shakllantirishda muhim institutsional cheklov va yo'naltiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Xususan, milliy rejim, eng qulay shartlar rejimi (MFN), diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va shaffoflik prinsiplari davlatlarning tashqi savdo bilan bog'liq soliq mexanizmlarini xalqaro raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan tarzda shakllantirishni talab qiladi.


Tahlillar shuni ko'rsatdiki, JST qoidalariga nuqtai nazaridan soliq siyosatining asosiy mezonini "soliq neytralligi" hisoblanadi. Ya'ni soliq mexanizmi mahalliy va import mahsulotlari o'rtasida sun'iy raqobat ustunligi yoki cheklov yaratmasligi lozim. Bu holat, ayniqsa, ichki bilvosita soliqlar, tashqi savdo bilan bog'liq imtiyozlar hamda eksportni rag'batlantiruvchi soliq yengilliklarida muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. JST prinsiplarining milliy soliq siyosatiga ta'siri¹

JST prinsipi	Soliq siyosatiga ta'siri	Institutsional natija
Milliy rejim	Import va mahalliy mahsulotlarga teng ichki soliq rejimi	Diskriminatsion soliqlarni cheklaydi
Eng qulay shartlar rejimi (MFN)	Barcha savdo hamkorlariga teng munosabat	Selektiv soliq imtiyozlarini qisqartiradi
Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik	Soliq yukida tenglikni ta'minlaydi	Raqobat muhitini yaxshilaydi
Shaffoflik	Soliq qoidalarining ochiqligi	Investitsion ishonchni oshiradi
Savdo liberallashuvi	Tariflarni qisqartirish	Bilvosita soliqlar ahamiyatini oshiradi

• Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, JST prinsiplari davlat soliq siyosatini proteksionistik yondashuvdan iqtisodiy neytrallik tamoyiliga yo'naltiradi. Bu esa tashqi savdo munosabatlarida raqobat muhitining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

• Tadqiqot jarayonida tashqi savdo liberallashuvi va soliq tuzilmasidagi o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlik ham tahlil qilindi. Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, import tariflari qisqargan sari davlatlar fiskal barqarorlikni saqlash maqsadida ichki bilvosita soliqlarga, ayniqsa qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlarga ko'proq tayana boshlaydi.



1-rasm. Savdo liberallashuvi sharoitida tariflar va bilvosita soliqlar tendensiyasi²

Grafikdan ko'rish mumkinki, tashqi savdo tariflarining bosqichma-bosqich qisqarishi davlat budjetlari daromadlari tarkibida QQS va aksizlar ulushining ortishi bilan bir vaqtda kechmoqda. Bu holat xalqaro savdo erkinlashuvi sharoitida tariflar o'rnini iqtisodiy neytral hisoblangan ichki bilvosita soliqlar egallab borayotganligini anglatadi.

Tahlil natijalari qo'shilgan qiymat solig'i JST prinsiplariga nisbatan eng mos bilvosita soliq shakllaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Bu, avvalo, uning "manzil prinsipi" asosida amal qilishi bilan izohlanadi. Ya'ni eksport operatsiyalari nollik stavkada soliqqa tortilishi, import mahsulotlari esa ichki bozorda umumiy tartibda soliqqa tortilishi tashqi savdo munosabatlarida nisbatan teng raqobat muhitini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotlar tashqi savdo bilan bog'liq selektiv soliq imtiyozlari va eksportga bog'langan yengilliklar JST qoidalari bilan eng yuqori darajada ziddiyatga kiruvchi mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Xususan, muayyan mahsulot yoki eksport hajmiga bog'lab beriladigan soliq yengilliklari xalqaro savdo raqobatini buzuvchi yashirin subsidiya sifatida baholanishi mumkin.

1 Manba: JST prinsiplari asosida muallif tomonidan shakllantirildi. <https://www.wto.org/>.

2 Manba: Xalqaro amaliyot tahlili asosida muallif tomonidan shakllantirildi.


2-jadval. Soliq instrumentlarining JST prinsiplariga muvofiqlik darajasi³

Soliq instrumenti	Muvofiqlik darajasi	Asosiy sabab
Qo'shilgan qiymat solig'i	Yuqori	Neytral va manzil prinsipiga asoslangan
Aksiz solig'i	O'rtacha	Barcha mahsulotlarga teng qo'llanilganda muvofiq
Import bojlari	Cheklangan	Savdo liberallashuvi talablari bilan qisqaradi
Eksportga bog'langan soliq imtiyozlari	Past	Yashirin subsidiya sifatida baholanishi mumkin
Selektiv soliq yengilliklari	Past	Eng qulay sharoit rejimi va milliy rejim prinsiplariga zid kelishi mumkin

Jadval natijalari JST prinsiplari nuqtai nazaridan iqtisodiy neytral soliq mexanizmlari eng maqbul yondashuv hisoblanishini ko'rsatadi. Aksincha, tashqi savdo ishtirokchilariga selektiv afzallik beruvchi soliq instrumentlari xalqaro savdo muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot davomida JST prinsiplariga mos soliq siyosatini shakllantirishga ta'sir qiluvchi nazariy yondashuvlar ham qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar savdo liberallashuvi nazariyasi va institutsional iqtisodiyot yondashuvlari mazkur masalani izohlashda eng yuqori ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Турли назарий ёндашувларнинг институционал аҳамияти

2-rasm. JST prinsiplariga mos soliq siyosatiga ta'sir qiluvchi nazariy yondashuvlar⁴

Rasmdagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, savdo liberallashuvi nazariyasi hamda institutsional iqtisodiyot yondashuvlari JST prinsiplariga mos soliq siyosatini shakllantirishning eng muhim nazariy asoslari hisoblanadi. Bu, avvalo, mazkur nazariyalarning tashqi savdo munosabatlarida davlat aralashuvini minimallashtirish, iqtisodiy resurslar taqsimotida bozor mexanizmlarining ustuvorligini ta'minlash hamda raqobat muhitini sun'iy cheklovlardan himoya qilishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Xususan, savdo liberallashuvi nazariyasi tashqi iqtisodiy munosabatlarda tarif va notarif cheklovlarni qisqartirish orqali tovarlar, xizmatlar va kapital harakatining erkinligini ta'minlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishini asoslab beradi. Ushbu yondashuv nuqtai nazaridan milliy soliq siyosati tashqi savdo ishtirokchilari uchun qo'shimcha yashirin to'siq yoki raqobat afzalligi yaratmasligi lozim.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasi esa mazkur masalaga kengroq nuqtai nazardan yondashib, samarali iqtisodiy tizimni shakllantirishda huquqiy aniqlik, institutsional barqarorlik va davlat siyosatining shaffofligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, JST prinsiplariga mos soliq siyosati faqat soliq stavkalari yoki imtiyozlar tizimini o'zgartirish bilan cheklanmaydi, balki soliq munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun teng va prognoz qilinadigan institutsional muhitni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

3 Manba: JST ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi. <https://www.wto.org/>.

4 Manba: Nazariy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



Tadqiqot natijalari JSTga a'zo bo'lish jarayonida davlat soliq siyosatini muvofiqlashtirishning eng maqbul konseptual modeli bir nechta o'zaro bog'liq institutsional yo'nalishlarga asoslanishini ko'rsatdi.

Birinchi muhim yo'nalish ichki soliqlarda diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik bilan bog'liq. Chunki milliy rejim prinsipiga ko'ra, import mahsulotlari ichki bozorga kiritilgandan keyin mahalliy mahsulotlarga nisbatan og'irroq soliq yukiga duch kelmasligi lozim. Bu esa davlatlarning ichki soliqlar orqali importni bilvosita cheklash imkoniyatlarini qisqartiradi va tashqi savdo munosabatlarida teng raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish bilvosita soliqlarning iqtisodiy neytralligini ta'minlash bilan bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo liberallasuvi sharoitida qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar kabi bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbalariga aylanib bormoqda. Shu sababli mazkur soliqlarning barcha bozor ishtirokchilari uchun bir xil va neytral qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qo'shilgan qiymat solig'ining "manzil prinsipi" asosida amal qilishi uni JST prinsiplariga nisbatan eng muvofiq soliq instrumentlaridan biriga aylantiradi.

Uchinchi muhim yo'nalish tashqi savdo bilan bog'liq selektiv soliq imtiyozlarini qisqartirish bilan bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muayyan mahsulot, tarmoq yoki eksport hajmiga bog'langan soliq yengilliklari xalqaro savdo raqobatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va JST qoidalari nuqtai nazaridan yashirin subsidiya sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli zamonaviy soliq siyosati selektiv imtiyozlardan ko'ra umumiy investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan universal va neytral mexanizmlarga tayanishni talab etadi.

To'rtinchi muhim yo'nalish soliq ma'murchiligi shaffofligini kuchaytirish bilan bog'liq. JST prinsiplari nuqtai nazaridan soliq qoidalarining aniqligi, ochiqligi va barqarorligi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun prognoz qilinadigan muhitni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi, elektron hisob-kitob tizimlari va axborot shaffofligining oshishi xalqaro savdo munosabatlarida ma'muriy to'siqlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Beshinchi muhim yo'nalish tarif yuki qisqarishi sharoitida ichki fiskal bazani mustahkamlash bilan bog'liq. Savdo liberallasuvi natijasida import bojlari ulushining qisqarishi davlatlarni ichki soliq bazasini kengaytirishga majbur qiladi. Bu esa bilvosita soliqlar ma'murchiligini takomillashtirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq yig'imdorligini oshirish orqali fiskal barqarorlikni ta'minlashni talab etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari JST prinsiplari asosida shakllangan soliq siyosati davlatning fiskal manfaatlarini bilan xalqaro savdo tizimi talablari o'rtasidagi institutsional muvozanatni ta'minlashga qaratilgan universal konseptual yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuvda soliq siyosati tashqi savdoni cheklash yoki ayrim ishtirokchilarga sun'iy afzallik berish vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy neytrallik, teng raqobat muhiti va barqaror institutsional rivojlanishni ta'minlash mexanizmi sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Jahon savdo tashkiloti prinsiplari milliy soliq siyosatini shakllantirishda muhim institutsional asos hisoblanishini ko'rsatdi. Xususan, milliy rejim, eng qulay shartlar rejimi, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va shaffoflik tamoyillari tashqi savdo bilan bog'liq soliq mexanizmlarini iqtisodiy neytrallik asosida tashkil etishni talab qiladi.

Tahlillar tashqi savdo liberallasuvi sharoitida import tariflari ahamiyati pasayib, qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar kabi bilvosita soliqlarning roli ortib borishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tashqi savdo bilan bog'liq selektiv soliq imtiyozlari va eksportga bog'langan yengilliklar xalqaro raqobat muhitini buzuvchi omil sifatida baholanishi mumkinligi aniqlandi.

Shundan kelib chiqib, JSTga a'zo bo'lish jarayonida soliq siyosatini muvofiqlashtirish ichki soliqlarda diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, bilvosita soliqlarning neytralligini ta'minlash, selektiv imtiyozlarni qisqartirish, soliq ma'murchiligi shaffofligini kuchaytirish hamda ichki fiskal bazani mustahkamlashga asoslanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bagwell, K., & Staiger, R. W. (1999). An economic theory of GATT. *American Economic Review*, 89(1), 215–248. <https://doi.org/10.1257/aer.89.1.215>
2. Daly, M. (2005). The WTO and direct taxation (Discussion Paper No. 9). World Trade Organization.
3. Daly, M. (2006). WTO rules on direct taxation. *The World Economy*, 29(5), 527–557. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9701.2006.00799.x>
4. Li, J. (2005). Relationship between international trade law and national tax policy: A case study of China. *Bulletin for International Taxation*, 59(2), 77–87.
5. Keen, M., & Ligthart, J. E. (2002). Coordinating tariff reduction and domestic tax reform. *Journal of International Economics*, 56(2), 489–507.
6. Ebrill, L., Keen, M., Bodin, J.-P., & Summers, V. (2001). The Modern VAT. International Monetary Fund.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). Consumption Tax Trends 2024: VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/dcd4dd36-en>



8. Wilson, J. D. (1999). Theories of tax competition. *National Tax Journal*, 52(2), 269–304.
9. Keen, M., & Konrad, K. A. (2013). The theory of international tax competition and coordination. In A. J. Auerbach, R. Chetty, M. Feldstein, & E. Saez (Eds.), *Handbook of Public Economics* (Vol. 5, pp. 257–328). Elsevier. <https://doi.org/10.1016/B978-0-444-53759-1.00005-4>
10. World Trade Organization. (n.d.). World Trade Organization official website. <https://www.wto.org/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
